

## XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA O'QUVCHILAR DUCH KELADIGAN MUAMMOLARGA SAMARALI YECHIMLAR

**Gulnoza Ibodullayeva Nizomovna**

**Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7634160>**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ushbu muammolarning oldini olishga yordam beradigan yechimlardan iborat.

**Kalit so'zlar:** talaffuz, xorijiy tillar, muammo, lug'at, urg'u, harflar.

Kun sayin rivojlanib borayotgan mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida Prezidentimizning 10.12.2012 yildagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorlariga muvofiq yurtimizda yosh avlodga xorijiy til o'rgatish yanada kuchaytirilganini keltirishimiz mumkin. Ammo har bir ishning o'z qiyinchiligi bo'lgani kabi chet tillarini o'rganishning ham qiyinchilik tomonlari mavjud. Hozirgi kunda jahonda o'zining ulkan o'rniga ega bo'lgan hamda dunyo tillari miqyosida birinchilikni egallagan ingliz tilini o'rganishda qanday muammolarga duch kelinadi. Ingliz tilini sevuvchi va o'rganishni niyat qilgan barchaga sir emaski bizda ingliz tilining ikki shakli ya'ni (versiyasi) mavjud. Bular: Amerika shakli (American English) va Britaniya shakli (British English). Bu ikki mintaqa aholisi deyarli bir xil so'zlar, gaplar yoki frazalardan foydalanishadi. Ammo ikkalasining talaffuzi o'rtasida katta tafovut mavjud. To'g'ri grammatik jihatdan ham tafovutlar mavjud ammo ular deyarli ahamiyatga molik emas. Ba'zi ingliz tilidagi harflarning talaffuzida farqlar mavjud. Masalan (r) harfi talaffuzda ikki ko'rinishda keladi. Amerika ingliz tilisida ushbu tovush so'zing istalgan qismida talaffuz qilinadi ammo Britaniya ingliz tilisida unli harfdan so'ng kelsa talaffuz qilinmaydi. Masalan: elevator [elə vādər] bu American talaffuzga misol. Endi Britanacha talaffuzga to'xtaladigan bo'lsak, car[ka: (r)] bunda r harfi talaffuzda ishtirok etmaydi. Bundan tashqari ushbu ingliz tilining ikki shaklida ba'zi so'zlar ham bir biridan farq qiladi. Bunga misol sifatida quyidagi so'zlarni ko'rishimiz mumkin: American / British

elevator / lift – lift.

garbage / rubbish – axlat.

vacation / holiday – ta'til.

truck / lorry – yuk mashinasi.

sweater / jumper – sviter.

cookie / biscuit – biskvit.

french fries / chips – chipsi.

line / queue – navbat.

parking lot / car park – mashina to'xtash joyi.

silverware / cutlery – vilka-qoshiq.

Xo'sh bundan keyin ko'pchilikda savol tug'ilishi aniq. Qay birini o'rgangan maqul? Qaysi biri qulayroq? Bu avvalo insonning o'z xohishiga bog'liq, shuningdek davr taqozosiga ham. Siz o'zingiz uchun eng oson deb bilganingizdan foydalanishingiz mumkin. Lekin Britaniyaga sayohat qilishni niyat qilib-u American English ni o'rganishni aslo maslahat bermaymiz.

Xorijiy tillarni o'rganishni niyat qilganlar duch keladigan muammolar faqat shular bilan cheklanib qolmaydi. Ingliz tilidagi tovushlar boshqa tillardagi tovushlardan farqli o'laroq talaffuzda biroz murakkabroq hamdir. Bunga asosiy sabablardan biri ingliz tilida tish oralig'i tovushlarining mavjudligidir. θ] va [ð] tovushlarini o'rganishda deyarli barcha o'quvchilar qiynaladilar. Bunga sabab o'zbek tilida tish oralig'i tovushlarining yo'qligidir.

O'zbek tilidan farqli o'laroq ingliz alifbosida [w] tovushi ham mavjud. O'quvchilar ushbu tovushni talaffuz qilishda ham muammolar bilan yuzma-yuz keladilar. Chunki bolalar ushbu tovushni o'zbek tilidagi [v] bilan adashtirib yuborishadi. Shuningdek [t;d] tovushlari ham ingliz tilida biroz boshqacharoq talaffuz qilinadi. Bu ham o'quvchilar nutqining ravon shakillanishida muammolar tug'diradi. Ushbu muammolarga yechim sifatida shuni alohida takidlash lozimki o'quvchilarga qaysi harf tilning qayerida hosil bo'lishi ustozlar tomonidan amaliyotda aniq ifodalanishi va doimo takrorlatib turilishi lozim. Bundan tashqari o'quvchilar o'zlari mustaqil internet tarmoqlaridan ham foydalangan holda harflar og'izning aynan qaysi qismida qay holda hosil bo'lishini o'rganishlari mumkin. Til o'rganishdagi yana bir muhim xususiyatlardan biri bu-so'z urg'usiga e'tiborli bo'lishdir.

Hech kimga sir emaski chet tillarida so'zlashish uchun eng muhim narsa bu so'z boyligiga ega bo'lish. Bu uchun bir qancha lug'at kitoblar mavjud. Lekin o'quvchilar ularni yodlash jarayonida qiyinchiliklarga uchraydilar. Bazida lug'atlar insonning vaqtinchalik xotirasiga muhrlanadi hamda bir qancha vaqtdan so'ng butkul xotiradan o'chib ketadi. Nega shunday? Lug'atlarni qanday qilib doimiy xotiraga muhrlash mumkin? Lug'at yodlashning oson usullari bormi? Albatta bor. Ko'pchilik o'quvchilar oldlariga lug'at kitobni qo'yib o'zlari uchun chegara(limit) belgilab olishadi va shu miqdordagi lug'atni malum bir vaqt davomida sharros yod olishga harakat qiladilar. Ammo bu unchalik ham o'z samarasini bermaydi. Avvalo lug'at yodlash jarayonida har bitta so'zni o'zining yangi bir sinonimi yani ma'nodoshi bilan bog'lab, so'ng ushbu so'zlarga bir necha gaplar tuzish lozim. Shunda ushbu yangi lug'atlar inson xotirasidan joy oladi. Doimiy xotiraga joylashishi uchun esa ushbu ishni bir necha marotaba takrorlash kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki agar insonda kuchli xohish bo'lsa, maqsadga erishish yanada osonroq bo'ladi. Avvalo tinimsiz mehnat, harakat va oxirida kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi. Til bilgan inson hayotda also qoqilmaydi. U uchun imkoniyat eshiklari doimo ochiq.

### References:

1. XORIJIY TILLARNI YANGI O'RGANISHGA KIRISHGAN YOSHLARNING YO'L QO'YADIGAN BA'ZI XATOLARI, MUAMMOLI VAZIYATLARI VA ULARNING TAHLILI – тема научной

статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка"  
<https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-yangi-o-rganishga-kirishgan-yoshlarning-yo-l-qo-yadigan-ba-zi-xatolari-muammoli-vaziyatlari-va-ularning-tahlili>.

2. "Xorijiy tilni o'rganishdagi muammolar - Ma'rifat – Учитель Узбекистана"  
<http://marifat.uz/marifat/ruknlr/umumii-urta-talim/5141.htm>.

3. "What are the differences between British and American English? | Britannica Dictionary" <https://www.britannica.com/dictionary/eb/qa/what-are-the-differences-between-British-and-American-English>.

4. "Differences Between British and American English"  
<https://www.mondly.com/blog/2020/06/16/british-vs-american-english-differences/>.

"O'rta maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklari | Статья в журнале «Молодой ученый»" <https://moluch.ru/archive/107/25687/>

